

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022


# 2022

УЧЕНЫЙ — ТОТ, КТО  
МНОГО ЗНАЕТ ИЗ КНИГ;

ОБРАЗОВАННЫЙ — ТОТ, КТО  
УСВОИЛ СЕБЕ ВСЕ САМЫЕ  
РАСПРОСТРАНЕННЫЕ В ЕГО  
ВРЕМЯ ЗНАНИЯ И ПРИЕМЫ;

ПРОСВЕЩЕННЫЙ — ТОТ, КТО  
ПОНИМАЕТ Смысл Своей Жизни.

LEV TOLSTOY  
(1828-1910)



OKTYABR  
№ 45



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
22-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-22**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-22**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 45-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР**

|  |   |
|--|---|
| <b>1. Avezova Qutlibika Ollanazarovna, Xo'jayeva Surayyo Ramanberdiyevna</b> |   |
| BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA           |   |
| UNING IMKONIYATLARI.....   | 7 |
| <b>2. Sayfullayeva Tursunoy Ozod qizi</b>                                    |   |
| SANGZOR DARYOSI ATROFIDA TARQALGAN O'SIMLIK TURLARI.....                     | 9 |



## БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA UNING IMKONIYATLARI

**Avezova Qutlibika Ollanazarovna.**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 21-sون мактабнинг биологија фани о'қитувчиси

**Xo'jayeva Surayyo Ramanberdiyevna.**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 21-sон мактабнинг биологија фани о'қитувчиси

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda innovatsion ta'larning afzalliklari va uning imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, uzluksiz ta'lim tizimida sifat samaradorligini oshirish, biologiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish.

Bugungi kunda butun dunyoda har tomonlama globallashuv va integratsiya jarayonlari kuchayib bormoqdaki, O'zbekiston ham bu jarayonlar oqimidan mustasno emas. Xalqaro siyosiy doiradagina emas, balki ichki siyosiy muhitda ham farovon va barqaror jamiyat qurish uchun kuchli va malakali, siyosiy va huquqiy bilimlarga ega kadrlar kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Darhaqiqat, axborotlar globallashgan davrda ta'limg-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini oshirish dolzarb muammo sanaladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar va yangiliklar asosida pedagog xodimlarga qo'yilayotgan zamonaviy talablar ta'lim va yoshlar to'g'risidagi xukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yetadigan hamda targ'ibot qiladigan; o'z fanini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning sub'ektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan; o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lgan; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o'quvchilar va pedagoglar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta'limi muhitni shakllantirish yo'nalishlarida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlar va ularni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalar darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlari, shuningdek, qobiliyatlar, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonlarni ilmiy asoslarda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi zamonaviy talablar ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarining o'z bilimlari, ko'nikma malakalarini uzluksiz rivojlantirib borishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida uzluksiz malaka oshirish jarayonining samaradorligini ta'minlashda quyidagilarni inobatga olish zarurbo'ladi:

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- ijodiy hamkorlikni ta'minlovchi refleksiv ta'limi muhitni vujudga keltirish;
- axborotlarning yangiliqi va ishonchlilagini ta'minlash;
- barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirishni loyihalash va yaratish;
- axborotlashtirish sohalarida meyoriy bazalarni yaratish (koordinatsiyalar, metodlar, ilmiy-



metodik va h.k.);

- texnik ta'minotni-komhpyuterlar, axborot texnologiyalarning boshqa qurilmalari, ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda innovation texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Innovation texnologiyalaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtadan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempi bo'yicha bilim olish, o'qituvchida esa, o'quvchilar bilan tabaqlashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi.

Biologiya fanini o'qitishda quyidagilardan foydalanish mumkin: har bir mavzu mazmuniga asosan ko'rgazmalilikni amalga oshirish, ya'ni multimediali taqdimot materiallari; biologik jarayonlarning animatsiyasi; virtual laboratoriya va amaliy ishlar; ishlab chiqarish korxonalariga virtual ekskursiya; biologik jarayonlarning modellashtirilgan dasturlari; biologik jarayonlarning ta'limiy dasturlari; o'quvchilarning mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun nazorat dasturlari;

o'quvchilarning mustaqil ta'limi va ishi uchun o'quv-axborot saytlari; didaktik o'yinka asoslangan animatsiyalar; qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan ijodiy topshiriqlar dasturi; modul dasturlari orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish-boshqarish; qo'shimecha materiallar to'plash va ular ustida mustaqil ishslash; didaktik o'yinlar, boshqotirmalarni yechish. Demak, biologiya fanini o'qitishda innovation texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya ta'limi texnologiyalari. — T.: O'qituvchi, 2002.
- 2.J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. Pedagogika oliv o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. — T.: Moliya-iqtisod, 2007.
3. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. — T.: «Bilim» 2004.



SANGZOR DARYOSI ATROFIDA TARQALGAN O‘SIMLIK TURLARI

Sayfullayeva Tursunoy Ozod qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti magistranti

Telefon:+998933036030

**Annotatsiya:** O‘rta Osiyo,xususan O‘zbekiston mintaqasida turli omillarning bevosita ta’siri natijasida iqlimda bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘simliklar florasiiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’siri natijasida mintaqamizning cho‘l,adir,daryo va suv havzalarining o‘simliklar florasi keskin kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Antropogen, global, gerbariy, noyob, senotip, ,assotsatsiya, ra’nodosh, zona

Hozirgi kunda tabiatga bevosita turli omillarning ta’siri keskin oshib bormoqda.Buning oldini olishga qaratilgan sayi harakatlar butun dunyo Global muammosi hisoblanadi.Orol dengizi qurib borishi uning atrofida qanchadan qancha turlarning qirilib ketishiga sabab bo‘lmoqda.Bundan tashqari hozirgi kunda Sangzor daryosi suv havzasining keskin kamayishi yoki ba’zi joylarda Jizzax shaxri atrofidagi o‘zanlarigayoz oylarida batamom suv kelmay qo‘yanlik holatlari kuzatilmoqda.

Sangzor daryosing havzasasi Turkiston tog‘ tizmasining g‘arbiy qismidagi tabiiy- geografik sharoitiga ko‘ra o‘ziga xos flora va o‘simliklar qoplamiga ega.Sangzor daryosi havzasining o‘simliklari haqidagi dastlabki ma’lumotlar 1869-1870 yillardagi A.P.Fedchenko ishlari bilan bog‘liq.Fedchenko Zarafshon va Samgzor daryolari havzalarini tadqiq etarkan,10 minga yaqin fauna vakillarini jamlanmasini va katta miqdorda tog‘ va ko‘llarda o‘suvchi o‘simliklardan tuzilgan gerbariylarni yig‘ishga erishdi.Shundan 66 yil o‘tgach Sangzor vodiysi o‘simliklari ustidagi tadqiqotlar ancha jonlandi.Sangzor daryosi havzasida tarqagan o‘simliklar turi 600 dan ortiq bo‘lib,undan 260 ga yaqini dorivor o‘simliklar hisoblanadi. Ushbu hududda 73 ta oilaga mansub o‘simliklar turi aniqlangan bo‘lib, dorivor o‘simliklar eng ko‘p tarqagan oila bu Qoqio‘tdoshlar (*Asteraceae*) oilasi hisoblanadi.Qoqio‘tdoshlar (*Asteraceae*) oilasidan 46 tur dorivor o‘simliklar Sangzor daryosi havzasida uchraydi.Ra’nodoshlar (*Rosaceae*) oilasidan 31 tur tarqagan. Sangzor havzasining zonal o‘simliklar qoplamida : adirda 1 tip, 2 kenja tip, 4 senotip, 8 formatsiyava,56 assotsatsiya; baland tog‘da 1 tip, 3 kenja tip, 5 senotip, 13 formatsiyava, 20 assotsatsiya; tog‘ dashtida 1 tip, 3 senotip, 7 formatsiyava 13 assotsatsiyalar keltirilgan.Shunday qilib keltirilgan sharhdan ma’lumki, Sangzor daryosi havzasining o‘simliklar qoplami haqidagi ma’lumotlar uziq – yuliq holda, keyingi 65-70 yil mobaynida antropogen va texnogen omillarning kuchli ta’siri oqibatida ularning qanchalik o‘zgarganligini ko‘rsatuvchi va ularni jamlovchi yaxlit ilmiy asarlar yo‘q.Bu o‘z navbatida havzaning o‘simliklar qoplamini va resurslarini muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqishda to‘sinqilik qiladi.Sangzor daryosi havzasi florasini o‘rganganimizda 30 ta oilaga mansub 62 ta turkum va 108 ta tur mavjudligi qayd etildi.Sangzor daryosi havzasida tarqagan o‘simliklarni hayotiy shakllarini tahlil qilganimizda daraxt,buta, chala buta, ko‘p yillik, ikki yillik, va bir yillik o‘simliklar quyidagi ko‘rsatkichlarni berdi.Daraxt 3 ta tur (2.7 %), buta 5ta tur (4.5%) va bir yillik 7 ta (6.4%) ni tashkil etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

- 1.Alibekov L.A O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Samarqand 2006.
- 2.Бешко Н.Ю Систематический анализ флора Нуратинского заповед .Узб.биол. журнал -Ташкент 2000
- 3.Биологический энциклопедический словарь. “Советская енсеклопедия “1990
- 4.Alibekov L.A , Nishonov S.A Природные условия и ресурсы и Джиззахской области – Т. “Узбекистон” 1978
- 5.Флора Узбекистана В.Т-2 томах Ташкент
- 6.internet ma’lumoti. <https://fvv.uz.sangzor daryosi havzalarini mustahkamlash tadbirlari>.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 22-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000